

Jadval ma'lumotlarining ko'rsatishicha, O'zbekistonda kichik tadbikorlik subyektlarida band bo'lganlar soni 2010-yilda 8643,9 ming kishini tashkil etib, 2022-yilga kelib 10131,1 ming kishini tashkil etgan, ya'ni so'nggi 13 yilda kichik tadbikorlik subyektlarida band bo'lganlar soni 1487.2 ming kishiga yoki 17 foizga oshgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi esa 2010-2022-yillar davomida ko'tarilish va tushish tendensiyasiga ega bo'lgan holda o'zgarib turgan va 2010-yilda bu ko'rsatkich 74,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda esa 73,9 foizni tashkil etmoqda. Aholi daromadlari esa 2010-2022-yillarda mos ravishda 62631,6 mlrd. so'm va 633567,4 mlrd. so'mni tashkil etgan, ya'ni 10 barobarga oshgan.

Xulosa qilib aytganda, Insonning ma'lum soha bo'yicha ilm va tushuncha olishida ta'lim eng muhim tizim hisoblanadi. Yoshlarning moliyaviy savodxonligini asta-sekin ta'lim davrida oshirib borish samarali natijadir.

Buning uchun har bir hududda hamda ish joylarida moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha ekspertlarni jalb qilgan holda treninglar tashkil etish zarur.

Mahalliy hokimyat, ish beruvchilar, mahalla faollari bu borada yanada mas'uliyatli bo'lishlari lozim, chunki har qanday moliyaviy yo'qotish bir oila uchun bu o'sha hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga sekin asta ta'sir qilib boradi.

Uy xo'jaliklari, oilalar va shaxslarga o'z byudjetlarini shakllantirish va rejalashtirishga oid bilim hamda ko'nikmalarni muntazam berib borishning universal usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, aholining turli ijtimoiy guruhlari uchun mo'ljallangan moliyaviy savodxonlik, uning tarkibiy qismlarini takomillashtirish bo'yicha turli axborot va ta'lim dasturlarini ishlab chiqilishi, hamda ularni muntazam tegishli aholi qatlamlari uchun yetkazib borish ham muhim choralardan hisoblanadi.

JAHON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHI VA MINTAQAVIY IQTISODIYOTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGI O'RTASIDAGI MUNOSABATLARI

Xayitova Feruza

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"
Ilmiy – tadqiqot markazi tayanch doktoranti*

Bugungi kunga kelib glaballashuv jarayonlari nafaqat xalqaro iqtisodiyot tuzilishini o'zgartiribgina qolmay, balki har bir davlat ichidagi mintaqalarning rivojlanishiga ham katta ta'sir o'tkazmoqda. Bizga ma'lumki, bir davlat boshqa bir davlat bilan mahsulot ayirboshlashni yo'lga qo'ymasdan turib, iqtisodiy faoliyatini yuritishi juda qiyin. Mahsulot ishlab chiqarishning amalga oshishi va rivojlanishi xalqaro savdo munosabatlarini vujudga keltiradi. Mahsulot ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etib

borishi bevosita ishlab chiqarish hajmini kengayishiga hamda boshqa tomondan mamlakatlararo xo'jalik aloqalarining yanada rivojlanishiga imkon yaratadi. Iqtisodchi olim J. Saksning fikriga ko'ra "dunyodagi har qanday mamlakatning iqtisodiy muvaffaqiyati tashqi savdoda ko'rinadi. Hozirgi kunga qadar hech bir mamlakat jahon iqtisodiy tizimidan ajralgan holda sog'lom iqtisodiyotni hosil qila olgani yo'q"⁷.

Avvalambor jahon iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlariga qaraydigan bo'lsak, jahon xo'jaligini vujudga kelishi Rim imperiyasi davrlariga to'g'ri keladi (er.avv.gi II va eramizning I asrlari). Ba'zi olimlar jahon xo'jaligini faoliyat davrini XV-XVI asrlar, ya'ni jug'rofiy kashfiyotlar davri bilan bog'laydilar. Aynan shu ixtirolar qimmatbaho toshlar, metallar va qullar bilan xalqaro savdoning tez rivojlanishiga sabab bo'lgan. Biroq o'sha davrlarda jahon xo'jaligi faqat savdogarlarning sarmoyalari uchun ishlaydigan soha bo'lgan xolos. Zamonaviy jahon xo'jaligi esa sanoat inqilobidan keyin, kapitalning monopol bosqichiga o'tish davrida vujudga kelgan. Hozirgi davrga kelib jahon xo'jaligi – o'z miqyosiga ko'ra globaldir, hamda u to'liqligicha bozor iqtisodiyotining tamoyillari, xalqaro mehnat taqsimotining obyektiv qonuniyatlariga, ishlab chiqarishning baynalminallashuviga asoslanadi. Umuman olganda, jahon xo'jaligi tamoyillariga har bir davlat milliy iqtisodiyotining mustaqilligi, mamlakatlar iqtisodiy munosabatlarining bozor qoidalari asnosida olib borilishi, milliy xo'jaliklar manfaatlariga tayanib, ixtiyoriy ravishda va sharoit mavjud bo'lganda o'zaro integratsiyalashuvi kiradi. Jahon xo'jaligi aloqalari esa bevosita turli davlatlardagi firmalar, banklar va davlat idoralari o'rtasida, shuningdek xalqaro tashkilotlar ishtirokida amalga oshiriladi. Bularga Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Osiyo rivojlanish banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon savdo tashkiloti va boshqalar kiradi.

Xar bir mamlakat uchun ma'lumki, mintaqa iqtisodiyotining to'laqonli rivojlanishi bevosita jahon xo'jaligi hamda boshqa davlatlarning milliy iqtisodiyoti bilan bevosita bo'g'liqdir. Dunyodagi barcha davlatlarning jahon xo'jalik aloqalarida tutgan o'rni, eng avvalo, ularning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari orqali baholanadi. Bu ko'rsatkichlar qatoriga chet davlatlarning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) yoki yalpi milliy mahsulot (YaMM) hajmini, o'rtacha ish haqi miqdorini, tashqi savdolar hajmini, mamlakatlarning tashqi qarzlari miqdorlari, kapital harakati ko'rsatkichlarini va boshqalarni kiritish mumkin. Shuni alohida aytib o'tish kerakki, jahon davlatlarini o'zaro solishtirishda aholining savodxonlik darajasi, ijtimoiy rag'batlantirish, nafaqa miqdorlari va o'rtacha umr ko'rish davri ko'rsatkichlari ham inobatga olinadi. Bugungi jahon xo'jaligida bir qancha mamlakatlar ulkan zafarlarga erisha olgan va shu sababli mana shu rivojlangan mamlakat kompaniyalari dunyoda yetakchilik qilib kelishmoqda. Darhaqiqat, jahon iqtisodiyotida Yaponiya va YeI mamlakatlari milliy valyutalari kursini AQSH dollarga nisbatan pasaytirishlari hisobiga ustunlikka ega bolishmoqda, ammo AQSH iqtisodiyoti to'lov balansining kamomadiga qaramasdan, o'z salohiyati bo'yicha jahonda tengsiz bo'lib qolmoqda. Amerikalik olim Maykl Porter bir davlat raqobatdoshligini uning jahon bozorlarida ishtirok etuvchi kompaniyalarning raqobatbardoshligi orqali aniqlashni taklif

⁷ https://www.gsid.nagoya-u.ac.jp/sotsubo/Papers/Sachs_Warner_1995.pdf

qilgan. Uning fikricha, hattoki eng rivojlangan mamlakatda ham sanoatning barcha tarmoqlari va mavjud barcha korxonalar zavodlar bir paytning o'zida taraqqiy eta olmaydi. Porter mamlakat farvonligi darajasini birinchi mikro darajada ko'rib chiqishni ta'kidlagan. Zero, milliy iqtisodiyot rivojining muvaffiqati xalqaro miqyosda faoliyat olib boruvchi kompaniyalar bilan o'zaro bo'g'liqdir.

Dunyo mamlakatlarining eng raqobatbardosh sohalarida yaratilgan mahsulotlar xalqaro savdo orqali qayta taqsimlanadi. Hech qaysi davlat bir vaqtning o'zida barcha jabhalarda ustunlikka ega bo'la olmaydi, sababi resurslar cheklanganligi uchun bunga erishib bo'lmaydi. Ma'lumki dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida ham ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rasida ham raqobatbardosh bo'lmagan sohalar mavjuddir. Jahon iqtisodiyotida milliy iqtisodiyot va xizmatlar sohasining, qishloq xo'jaligining raqobatbardoshligi erkin bozor sharoitida to'laqonli erishiladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, har qanday proteksionizm, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar berilishiga, ichki bozorga xorij raqobatchilarining kirib kelishini cheklash esa mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Odatda mamlakatning raqobatbardoshligiga to'rtta asosiy xususiyatlar to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Bularga: omillar sharti, ichki talab sharti, turdosh va xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarning mavjudligi hamda firmalar tuzilmasi strategiyasi va tarmoq ichidagi raqobat kiradi. Bu xususiyatlar mahalliy korxonalarda raqobat bo'la oladigan muhitni yaratib beradi. Shu bilan birga bunday muhit milliy iqtisodiyotda raqobat ustunliklarini ta'minlab berishi yoki, aksincha raqobat muhitining yuzaga kelishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Jahon iqtisodiyotida bir qancha omillar sharti ishlab chiqarish omillari hisoblanadi. Bularga inson resurslari, tabiiy resurslar, ilmiy-axborot salohiyati, kapital va infratuzilma kabi shartlar kiradi. Har bir davlat raqobatbardoshligini oshiradigan omillarga tabiiy va iqlimiy resurslar, shu mamlakatning jug'rofiy joylashuvi, malakaga ega bo'lmagan aholilarni kiritishimiz mumkin. Rivojlantiradigan omillarga esa mehnat qilish, ter to'kish orqali zamonaviy infratuzilmaga, yuqori malakali kadrlarga va ilmiy-texnikaviy axborot vositalariga erishish mumkin. Aynan mana shu rivojlantiradigan omillar jahon iqtisodiyotida raqobat ustunliklari yaratib beradi.

Xar qaysi mamlakatda kompaniyalarni tashkil etish usullari, ularni maqsad va strategiyalari bir-biridan farq qiladi. Ishlab chiqaruvchi korxonalar va kompaniyalarni boshqarish usuli, rahbarlikni olib borish, raqobat turlari milliy xususiyatlarga bog'liq boladi. So'nggi yillarda mamlakatimizda ham mintaqa iqtisodiyoti faoliyatini rivojlantirish, xorijiy davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish, shu bilan birga sifatli raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish asosida jahon bozorlarida o'z o'rnini egallashni hamda shu orqali milliy iqtisodiyotning rivojlanishini oshirishga qaratilgan bir qancha iqtisodiy islohotlar faol ravishda amalga oshirilmoqda. Xalqaro tajribalarga ko'ra iqtisodiyotni davlat tomonidan samarali boshqarishga mahalliy xususiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan hal etilgandagina erishiladi.

Xulosa. Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda mintaqalarning rivojlanish darajasi bilan bir qatorda, tarmoqlar tarkibi va mehnat resurslari bilan ta'minlanganligini alohida e'tiborga oladi. Shu sababdan ham har bir mintaqani majmuali ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatni kasb etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 16 aprelda o'tkazilgan videoselektorda ham mintaqalarni rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan toqimachilik sohasiga alohida to'xtalib o'tdilar. Bu soha mintaqalrimizda eng ko'p tarqalgan va aholini eng ko'p band qilgan salohiyatli sanoat tarmog'idir, bugungi kunda 6mingdan ortiq korxonada 570 ming kishi ish bilan ta'minlangan. So'nggi yillarda investitsiyalar, yangi texnologiyalar va xorijiy tajribalarni faol jalb etish orqali bir qancha sohalarda natijadorlik ancha oshgan. Masalan, o'tgan yili 8 mlrd 200 million dollarlik to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilgan va 2023 yilda tarmoqdagi eksport 3,1 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lsa bu yilda esa uchta yangi bozorga chiqildi. Muxtasar qilib aytganda, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan takliflar orqali mintaqamizda mamlakatlari ko'plab jiddiy masalalarni hal etishga muvaffaq bo'ldi - chegaralar ochildi, savdo va transport aloqalari, gumanitar almashinuvlar tiklandi.

Davlatimiz rahbari tomonidan, «Biz avtomobilsozlik, energetika, elektrotexnika, to'qimachilik, kimyo va farmatsevtika tarmoqlarida, qishloq xo'jaligida muhim kooperatsiya loyihalarini amalga oshirmoqdamiz; chegaradosh hududlarda hamkorlik markazlari va tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratmoqdamiz hamda shu orqali xalqaro hamjamiyatning mintaqamizga qiziqishi kuchayib bormoqda», degan fikrlar o'z tasdig'ini topib bormoqda⁸.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son
2. G.M.Shadieva, T.S.Sharipov, Sh.A.Sultonov, Z.S.Artikov, L.U.Maxmudov, A.P.Xazratov, D.S.Musinov. *Mintaqaviy iqtisodiyot darslik / Samarqand -2023*
3. *Региональная экономика: Методические указания / Л.Ф. Мирсаянова. – Казань: 2008*
4. Boltabaev M.R., Qosimova M.S., Ergashxodjaeva SH.J., G'oyipnazarov K., Samadov A.N., Xodjaev R.S. *Kichik biznes va tadbirkorlik. - T.: 2011 y.*
5. M.S. Mirsaidov. "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar". O'quv qo'llanma-T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2006 y.
6. G.G'.Nazarova, Z.M.Iminov, X.X.Xalilov, O.B.Hamidov "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar". Darslik - Toshkent- 2011

Internet tarmoqlari:

1. www.gov.uz
2. www.stat.uz
4. <https://www.theigc.org/blogs/successful-strategies-help-developing-countries-boost-exports>
5. <https://gsphub.eu/news/market-potential-uzbekistan>

⁸ <https://kun.uz/news/2023/09/29/endilikda-bu-umuman-boshqa-mintaqa-shavkat-mirziyoyev-markaziy-osiyo-jipslashgani-haqida?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F09%2F29%2Fendilikda-bu-umuman-boshqa-mintaqa-shavkat-mirziyoyev-markaziy-osiyo-jipslashgani-haqida>